MUHAMMAD AL-XORAZMIY NOMIDAGI TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI HUZURIDAGI TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.l3/30.12.2019.T.07.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

MUHAMMAD AL-XORAZMIY NOMIDAGI TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI

ABDUJALILOV JAVLONBEK ADILOVICH

SUN’IY INTELLEKT VA ROBOTOTEXNIKA ASOSLARINI MAKTAB O‘QUVCHILARIGA O‘QITISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH

13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (Informatika)

PEDAGOGIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

TOSHKENT– 2025

UDK: 37.373.1

Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по педагогическим наукам

Contents of the abstract of dissertation of the doctor of philosophy (PhD) in pedagogical Sciences

MUHAMMAD AL-XORAZMIY NOMIDAGI TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI HUZURIDAGI TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.l3/30.12.2019.T.07.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

MUHAMMAD AL-XORAZMIY NOMIDAGI TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI

ABDUJALILOV JAVLONBEK ADILOVICH

SUN’IY INTELLEKT VA ROBOTOTEXNIKA ASOSLARINI MAKTAB O‘QUVCHILARIGA O‘QITISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH

13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (Informatika)

PEDAGOGIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

TOSHKENT– 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.4.PhD/Ped8573 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Muhammad al-Xorazmiy nomida Toshkent axborot texnologiyalari universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, ingliz, rus (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.tuit.uz) va “ZiyoNet” Axborot ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Zakirova Feruza Makhmudovna** pedagogika fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	**Fayziyeva Maxbubaxon Raximjonovna** pedagogika fanlari doktori, professor
	Shoymardonov Tuymurod Turdialiyevich pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yetakchi tashkilot:	**Guliston davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Muhammad al-Xorazmiy nomida Toshkent axborot texnologiyalari universiteti huzuridagi DSc.l3/30.12.2019.T.07.01 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil “__” _____ soat _____dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: Toshkent 100084, Amir Temur shox ko‘chasi 108 uy, Tel.: +998712386489; faks: +998712386415, e-mail: info@tuit.uz

Dissertatsiya bilan Muhammad al-Xorazmiy nomida Toshkent axborot texnologiyalari universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: Toshkent 100084, Amir Temur shox ko‘chasi 108 uy, Tel.: +998712386489; faks: +998712386415

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil “____” _____ kuni tarqatildi.
(2025 yil “____” _____ dagi _____ — raqamli reyestr bayonnomasi).

M.M. Musaev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, t.f.d., professor

E.Sh. Nazirova
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, t.f.d., professor

Dj. B. Sultanov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, t.f.d., dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi inson hayotini yanada yaxshilash, ijtimoiy-iqtisodiy imkoniyatlarni kengaytirish, ta’lim jarayonini yanada takomillashtirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Texnologiyalar doimiy taraqqiyot yo‘lida va yangi sohalarni kashf etish asnosida resurslarning maksimal samaradorligini ta’minlovchi muhim predmetdir. Bu kabi yangi sohalarga sun’iy intellekt va robototexnikani misol qilish mumkin. Sun’iy intellekt va robototexnikaning ta’lim tizimiga kirib kelishiga YUNESKO[1] va bir qancha ta’lim tashkilotlari tomonidan katta e’tibor qaratilmoqda. XXI-asr texnologiyalar asri bo‘lganligi sababli, o‘quvchilarga sun’iy intellekt va robototexnikaga oid zarur bilim, ko‘nikma va malakalarni muntazam yetkazib borish eng dolzarb muammolardan hisoblanadi.

Dunyoda yetakchi mamlakatlar umumiy o‘rta ta’lim maktablarida sun’iy intellekt va robototexnika mavzularini tatbiq etish orqali o‘quvchilarning muammolarni hal qilish, tanqidiy fikrlash va ijodkorlikni o‘z ichiga olgan bir qator ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratilgan turli ilmiy tadqiqot ishlari olib bormoqda. Mazkur tadqiqotlarning zamonaviy tendensiyalaridan kelib chiqib, umumiy o‘rta ta’lim o‘quv jarayoniga innovatsion ta’lim texnologiyalarini tatbiq etish, ilg‘or xorijiy tajribalarni o‘zlashtirish va maqsadli yo‘naltirish, sun’iy intellekt va robototexnika mavzularini o‘qitish orqali o‘quvchilarning o‘rgangan bilimlarini amaliyotga joriy etish ko‘nikmalarini shakllantirish hamda raqamli kompetensiyalarga ega kadrlarni tayyorlash dolzarb vazifalardan hisoblanadi.

Mamlakatimizda axborot kommunikatsiya texnologiyalari jadal rivojlanib ilm-fan, ta’lim, ishlab chiqarish sohalariga kirib kelishi natijasida ko‘plab ishlab chiqarish obyektlarida robototexnika qurilmalaridan foydalanish, sun’iy intellekt tizimlarni joriy etish orqali ishlab chiqarish jarayonlarning avtomatlashtirishga katta e’tibor qaratilmoqda. Ushbu globallashuv va axborotlashtirish jarayonida umumiy o‘rta ta’lim tizimida o‘quvchilarga sun’iy intellekt va robototexnikani o‘qitish orqali ularning raqamli kompetensiyalarini shakllantirish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Sun’iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasida[2], “…sohada yuqori malakali kadrlar zaxirasini shakllantirish uchun umumta’lim maktablari o‘quvchilariga dasturlashni o‘rgatish bo‘yicha zarur sharoitlar yaratish, sun’iy intellekt yo‘nalishida kadrlar tayyorlovchi oliy ta’lim tashkilotlari bitiruvchilari sonini oshirish, dasturlash tillarini o‘qitish orqali o‘quvchi va talabalarning sun’iy intellekt sohasidagi bilimlarini o‘rta darajaga yetkazish” masalalariga alohida e’tibor qaratilgan. Mazkur vazifalar ta’lim tizimining barcha darajalariga qo‘yiladigan talablarni shakllantirishga ta’sir qiladi. Xususan, umumiy o‘rta maktab o‘quvchilari uchun muhandislik va raqamli mutaxassisliklarning bo‘lajak vakillari sifatida oldindan kasbiy tayyorgarlikka, sun’iy intellekt sohasida ularning raqamli kompetensiyalarini shakllantirishga talab yuqoriligini bildiradi.

---

[1] O‘quvchilar uchun Sun’iy intellektni o‘rganish freymvorki, UNESCO tomonidan 2024-yil chop etilgan, ISBN 978-92-3-100709-5 https://unesdoc.unesco.org/ark:/48223/pf0000391105

[2] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 14-oktyabrdagi PQ-358-son “Sun’iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 2-iyuldagi “Maktabgacha va maktab ta’limi sohasida davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-98-son, 2023-yil 26-maydagi “Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi hamda uning tizimidagi tashkilotlar faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-79-son, 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son farmonlari va 2024-yil 14-oktyabrdagi “Sun’iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-358-son, 2021-yil 17-fevraldagi “Sun’iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4996-son, 2021-yil 25-yanvardagi “Xalq ta’limi sohasidagi ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo‘llab quvvatlash hamda uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4963-son qarorlari hamda mazkur sohaga taalluqli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalarini rivojlantirishining I.“Axborotlashtirish va axborot kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. So‘ngi paytlarda ko‘plab davlatlarning olimlari tomonidan sun’iy intellekt va robototexnikani turli sohalarga tatbiq qilish yuzasidan ilmiy tadqiqot ishlarini olib borilmoqda, shuningdek, ushbu sohalarni yanada rivojlanishi uchun umumiy o‘rta ta’limda ushbu mavzularni o‘qitish bo‘yicha izchillik bilan shug‘ullanishmoqda. Dissertatsiyaning nazariy konsepsiyasini ishlab chiqishda quyidagi olimlarning olib borgan fundamental ilmiy tadqiqot ishlariga tayanildi:

Respublikamizda zamonaviy axborot va kommunikatsiya texnologiyalarini ta’lim tizimiga joriy etish va ta’limni axborotlashtirish vositalarini yaratish hamda ulardan foydalanishning nazariy asoslari bo‘yicha respublikamiz olimlaridan A.A. Abduqodirov, U.Sh. Begimkulov, M.X. Lutfillaev, M.E. Mamarajabov, F.M. Zakirova va boshqalarning ilmiy-tadqiqot ishlarida o‘z aksini topgan.

Mustaqil davlatlar hamdo‘stligi mamlakatlarida umumiy o‘rta ta’limning turli bosqichlarida sun’iy intellekt va robototexnika asoslarini o‘qitish bo‘yicha S.A. Beshenkov, L.L. Bosova, A.A. Kuznetsov, N.I. Rijova, T.N.Suvorova, N.N. Samilkina va boshqalar izlanishlar olib borishgan.

Xorij mamlakatlarida sun’iy intellekt va robototexnikani o‘qitishni nazariy rivojlanish asoslari bo‘yicha C. Breazeal, J. Makkarti, M. Minski, M.Resnik, A.M. Turing va boshqalar o‘rganishgan.

Tasvirlarni tekshirib bilish va sun’iy intellekt nazariyalari bo‘yicha katta maktab yaratgan akademik M.M. Komilov, axborotni qayta ishlash bo‘yicha akademiklar D.A.Abdullaev, T.F. Bekmuratov ilmiy-uslubiy izlanishlar olib borgan va bu sohaning rivojlanishiga katta hissa qo‘shgan.

Tadqiqot muammosiga doir adabiyotlarni o‘rganish va mavjud nazariy manbalarning tahlili shuni ko‘rsatdiki, umumiy o‘rta ta’lim maktablarida sun’iy intellekt va robototexnika asoslarini o‘qitish metodikasini takomillashtirish yuzasidan alohida ilmiy tadqiqot ishi sifatida o‘rganilmagan.

Tadqiqot mavzusining dissertatsiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot institutining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi asosida “O‘zbekistonda mexatronika va robototexnika bakalavriat ta’lim yo‘nalishini innovatsion g‘oyalar va raqamli texnologiyalar asosida modernizatsiya qilish” (loyiha raqami 609564-EPP-1-2019-1-EL-EPPKA2-CBHE-JP) xalqaro amaliy tadqiqot loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi sun’iy intellekt va robototexnika asoslarini maktab o‘quvchilariga o‘qitish metodikasini takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

sun’iy intellekt va robototexnika asoslarini umumiy o‘rta ta’lim maktabi o‘quvchilariga o‘qitishning pedagogik-psixologik omillarini aniqlashtirish;

sun’iy intellekt va robototexnika asoslari bo‘yicha o‘quvchining qobiliyatlarini shakllantirish bosqichlarini yoritib berish;

sun’iy intellekt va robototexnika asoslarini o‘qitish metodikasini takomillashtirish;

sun’iy intellekt va robototexnika asoslari bo‘yicha o‘quvchilarni o‘rgangan bilim, ko‘nikma, kompetensiyalarini aniqlashga yo‘naltirilgan formativ va summativ baholash mezonlarini ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida umumiy o‘rta ta’lim maktablarida sun’iy intellekt va robototexnika asoslarini o‘qitish jarayoni olinib, Toshkent shahridagi 12 ta tumanda joylashgan 12 ta umumiy o‘rta ta’lim maktablaridan 735 nafar o‘quvchi respondentlar tajriba sinov tariqasida sun’iy intellekt va robototexnika asoslarini o‘qitish uchun jalb qilindi.

Tadqiqotning predmeti sifatida umumiy o‘rta ta’lim maktablarida sun’iy intellekt va robototexnika asoslarini o‘qitish mazmuni, baholash mezoni, metodikasi va vositalari tashkil qiladi.

Tadqiqotning usullari tadqiqot jarayonida adabiyotlar tahlili, qiyosiy tahlil, so‘rovnoma, nazorat ishi, tajriba-sinov, matematik-statistik tahlil, intervyu kabi tadqiqot va tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

sun’iy intellekt va robototexnika asoslarini umumiy o‘rta ta’lim maktabi o‘quvchilariga o‘qitishning pedagogik-psixologik omillari neyrodidaktika tamoyillarini inobatga olgan holda immersiv texnologiyalardan foydalanish, raqamli kompetensiyalarni va ijodiy-texnologik fikrlash qobiliyatlarini shakllantirish asosida aniqlangan;

sun’iy intellekt va robototexnika asoslari bo‘yicha o‘quvchining qobiliyatlarini shakllantirish bosqichlari ijodiy-texnologik fikrlash imkonini beruvchi Arduino muhitida aqlli komponentlarni dasturlashga olib keluvchi elektron sxemalarni yaratish, funksional bloklarni kodlash va generativ sun’iy intellekt texnologiyalar yordamida tekshirish xususiyatlariga ustuvorlik berish asosida takomillashtirilgan;

sun’iy intellekt va robototexnika asoslarini o‘qitish metodikasi guruhli loyihalarni bajarish jarayonida klasterlash, tasniflash va regressiya algoritmlari yordamida ma’lumot to‘plamlarini tahlil qilish, mikrokontrollerlarni yig‘ish va simulyatsiya qilish

jarayonida avtomatik boshqarish asosida takomillashtirilgan;

sun’iy intellekt va robototexnika asoslari bo‘yicha o‘quvchilarning kompetensiyalarini rivojlantirish samaradorligini baholash mezonlari konstruktiv fikrlashga yo‘naltirilgan muammoli vazifalar, guruh loyihalarning mavzulari va ularni bajarish darajasini hisobga olgan holda formativ va summativ usullarni joriy etish asosida takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

umumiy o‘rta ta’lim maktabi o‘quvchilari uchun sun’iy intellekt va robototexnika asoslari mavzulari bo‘yicha amaliy mashg‘ulotlarni o‘tkazish bo‘yicha uslubiy qo‘llanma ishlab chiqilgan;

umumiy o‘rta ta’lim maktabi o‘quvchilari uchun sun’iy intellekt va robototexnika asoslari mavzulariga doir topshiriqlar va baholash mezonlari ishlab chiqilib amaliyotga tatbiq etilgan;

umumiy o‘rta ta’lim maktabi o‘quvchilariga sun’iy intellekt va robototexnika asoslarini o‘qitishga yo‘naltirilgan “Maktab o‘quvchilariga sun’iy intellekt va robototexnika asoslarini o‘qitishning elektron o‘quv qo‘llanmasi” nomli o‘quv qo‘llanmasi (DGU 45434) yaratilgan va maktablarda tatbiq etilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi qo‘llanilgan nazariy ma’lumotlarning rasmiy manbalardan olinganligi, qo‘llanilgan usullar, muammoga falsafiy, pedagogik-psixologik yondashuvlar hamda respublika va xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari to‘plamlari, oliy attestatsiya komissiyasi e’tirof etgan maxsus va xorijiy jurnallarda chop qilingan maqolalar, keltirilgan tahlillar va tajriba sinov ishlari samaradorligining matematik statistika metodlari vositasida asoslanganligi, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotda joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati sun’iy intellekt va robototexnika asoslarini umumiy o‘rta ta’lim maktabi o‘quvchilarini o‘qitishda immersiv texnologiyalardan foydalanish, raqamli kompetensiyalarni va ijodiy-texnologik fikrlash qobiliyatlarini shakllantirish, Arduino muhitida aqlli komponentlarni dasturlashga olib keluvchi elektron sxemalarni yaratish, funksional bloklarni kodlash va generativ sun’iy intellekt texnologiyalar yordamida tekshirish asosida o‘qitish metodikasini takomillashtirish bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundan iboratki, sun’iy intellekt va robototexnika asoslarini umumiy o‘rta ta’lim maktabi “Informatika va axborot texnologiyalari” fani o‘qituvchilarini malakasini oshirish kurslarida qo‘llanilishi mumkin. Shuningdek, “Matematika va Informatika” yo‘nalishida ta’lim beruvchi pedagogika universitetlarida bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlashda foydalanilishi mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Sun’iy intellekt va robototexnika asoslarini maktab o‘quvchilariga o‘qitish metodikasini takomillashtirish bo‘yicha tadqiqotning ilmiy natijalari asosida:

sun’iy intellekt va robototexnika asoslarini umumiy o‘rta ta’lim maktabi o‘quvchilariga o‘qitishning pedagogik-psixologik omillari neyrodidaktika tamoyillarini inobatga olgan holda immersiv texnologiyalardan foydalanish, raqamli

kompetensiyalarni va ijodiy-texnologik fikrlash qobiliyatlarini shakllantirish asosida aniqlashga qaratilgan takliflar “Informatika va axborot texnologiyalari” nomli darslik mazmuniga singdirilgan (O‘zbekiston Respublikasi Ta’limni rivojlantirish respublika ilmiy-metodik markazining 2025-yil 12-avgustdagi 01-03/7-422-sonli ma’lumotnoma). Natijada virtual reallik texnologiyalaridan foydalangan holda o‘quvchilarning raqamli kompetensiyalarini shakllantirishga imkoniyat yaratilgan;

sun’iy intellekt va robototexnika asoslari bo‘yicha o‘quvchining qobiliyatlarini shakllantirish bosqichlari ijodiy-texnologik fikrlash imkonini beruvchi Arduino muhitida aqlli komponentlarni dasturlashga olib keluvchi elektron sxemalarni yaratish, funksional bloklarni kodlash va generativ sun’iy intellekt texnologiyalar yordamida tekshirish xususiyatlariga ustuvorlik berish bo‘yicha takliflar “O‘zbekistonda bo‘lajak sun’iy intellekt olimlarini tarbiyalash uchun dasturlash va sun’iy intellekt ta’lim mazmuni va ta’lim modelini ishlab chiqish” bo‘yicha ta’lim sohasidagi xalqaro tadqiqot loyihasida foydalanilgan (2023-2024 yy). (Ta’limni rivojlantirish respublika ilmiy-metodik markazining 2025-yil 12-avgustdagi 01-03/7-422-sonli ma’lumotnoma). Natijada “Informatika va axborot texnologiyalari” fani o‘qituvchilari uchun zamonaviy o‘qitish texnologiyalari va vositalaridan foydalanish samaradorligi oshirilgan;

sun’iy intellekt va robototexnika asoslarini o‘qitish metodikasi guruhli loyihalarni bajarish jarayonida regressiya, tasniflash va klasterlash algoritmlari yordamida ma’lumot to‘plamlarini tahlil qilish, mikrokontrollerlarni yig‘ish va simulyatsiya qilish jarayonida avtomatik boshqarish asosida takomillashtirish bo‘yicha takliflar “O‘zbekistonda bo‘lajak sun’iy intellekt olimlarini tarbiyalash uchun dasturlash va sun’iy intellekt ta’lim mazmuni va ta’lim modelini ishlab chiqish” bo‘yicha ta’lim sohasidagi xalqaro tadqiqot loyihasida foydalanilgan (2023-2024 yy). (Ta’limni rivojlantirish respublika ilmiy-metodik markazining 2025-yil 12-avgustdagi 01-03/7-422-sonli ma’lumotnoma). Natijada “Informatika va axborot texnologiyalari” fani o‘qituvchilarini malakasini oshirishda foydalanish uchun guruhlarda ishlash orqali o‘qitish metodikasi takomillashtirildi.

sun’iy intellekt va robototexnika asoslari bo‘yicha o‘quvchilarning kompetensiyalarini rivojlantirish samaradorligini baholash mezonlari konstruktiv fikrlashga yo‘naltirilgan muammoli vazifalar, guruh loyihalarning mavzulari va ularni bajarish darajasini hisobga olgan holda baholashni takomillashtirish yuzasidan takliflar “O‘zbekistonda bo‘lajak sun’iy intellekt olimlarini tarbiyalash uchun dasturlash va sun’iy intellekt ta’lim mazmuni va ta’lim modelini ishlab chiqish” bo‘yicha ta’lim sohasidagi xalqaro tadqiqot loyihasida foydalanilgan (2023-2024 yy). (Ta’limni rivojlantirish respublika ilmiy-metodik markazining 2025-yil 12-avgustdagi 01-03/7-422-sonli ma’lumotnoma). Natijada o‘quvchilarning kompetensiyalarini baholash imkoniyatlari kengaytirildi.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 8 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 7 ta ilmiy ish, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta maqola, jumladan 4 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda chop

etilgan va 1 ta EHM uchun ishlab chiqilgan dasturiy vositalarni qayd qilish guvohnomasi olingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, 124 sahifa matn, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovadan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan; dissertatsiya mavzusi bo‘yicha respublika va xorijiy ilmiy-tadqiqot ishlari sharhi va muammoning o‘rganilganlik darajasi yoritilgan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, shuningdek, obyekti va predmeti aniqlangan, tadqiqot ishining fan va texnologiyalarni rivojlantirishning muhim yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan hamda tadqiqotning ilmiy yangiligi, natijalarning ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati asoslab berilgan, tadqiqot natijalarning amaliyotga joriy etilgani, e’lon qilingani, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi haqida ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida sun’iy intellekt va robototexnikani o‘qitishning pedagogik asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida sun’iy intellekt va robototexnika asoslarini umumiy o‘rta ta’lim maktabi o‘quvchilariga o‘qitish dolzarbligi, sun’iy intellekt va robototexnika asoslarini o‘qitish jarayonida o‘quvchilarni qobiliyatlarini shakllantirish va pedagogik-psixologik omillari to‘g‘risida ma’lumotlar keltirilgan.

Respublikamizda sun’iy intellektni rivojlantirish bo‘yicha bir qancha ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarida sun’iy intellekt texnologiyalarini joriy qilish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, mamlakatimizning sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanuvchi dunyoning yetakchi davlatlari qatoriga kirishiga erishish, shuningdek, “Raqamli O‘zbekiston-2030” strategiyasida belgilangan maqsad va vazifalar ijrosini ta’minlash maqsadida sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish bo‘yicha aholining bilim va ko‘nikmalarini oshirish, kadrlar salohiyatini rivojlantirish bo‘yicha sun’iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasi tasdiqlangan[3].

Rivojlangan mamlakatlarda sun’iy intellekt va robototexnika asoslarini umumiy o‘rta ta’lim maktablarida o‘qitish keng joriy etilmoqda. Jumladan, Janubiy Koreyaning umumiy o‘rta ta’lim maktablarida yuqori sinf o‘quvchilar uchun ushbu mavzular bir yilda o‘rtacha 30-40 soat o‘qitiladi. Massachusets Texnologiya Institutining sun’iy intellekt va robototexnikaning ta’limdagi rolini chuqur o‘rgangan olimlardan biri Cynthia Breazeal tomonidan ta’kidlanishicha ushbu mavzular o‘quvchilarda raqamli savodxonlik, ish bozorida raqobatbardoshlik va tahliliy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishda yordam beradi. Shuningdek, sun’iy intellekt va robototexnika asoslarini maktab o‘quvchilariga o‘qitish kelajakda muhim rol o‘ynaydigan texnologiyalarga tayyorlanishda yordam beradi[4].

Tadqiqot davomida O‘zbekiston Respublikasi umumiy o‘rta ta’lim ta’limda “Informatika va axborot texnologiyalari” va “Texnologiya” fanlarining dasturlari va

[3] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 14-oktyabrdagi PQ-358-son “Sun’iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori

[4] Umumiy o‘rta ta’limda sun’iy intellekt ta’limi https://www.media.mit.edu/publications/impact-ai-thesis/

darsliklari tahlil qilinganda, sun’iy intellekt va robototexnikaga doir mavzular mavjudligi aniqlandi. Ammo “Informatika va axborot texnologiyalari” fanida 2 soat (3%), “Texnologiya” fanida esa 6 soat (9%) sun’iy intellekt va robototexnika asoslari mavzulariga bag‘ishlangan. Bu esa o‘quvchilarning kelajakda sun’iy intellekt texnikalaridan samarali foydalanmasligiga olib keladi. Kelajak avlodning bilim va ko‘nikmalarini oshirish maqsadida sun’iy intellekt va robototexnika asoslarini o‘qitish metodikalari takomillashtirish taklif qilinmoqda.

Tadqiqot jarayonida eng avvalo mavzuga doir bo‘lgan zamonaviy pedagogik tajribalar o‘rganildi. Zamonaviy dunyoda VR (virtual reallik) va AR (kengaytirilgan reallik) kabi immersiv texnologiyalardan foydalanish keng tarqalmoqda, bu esa o‘quvchilarning fikrlash ko‘nikmalariga katta ta’sir ko‘rsatmoqda. Natijada neyrodidaktika deb atalgan yangi yo‘nalish paydo bo‘ldi. Ushbu texnologiyalardan foydalanish o‘quvchilarning shaxsiy xususiyatlariga moslangan interaktiv ta’lim muhitini yaratishga imkon beradi. Immersiv texnologiyalar o‘quvchilarning sun’iy intellekt algoritmlari va robototexnika tizimlarining ishlash prinsiplari kabi murakkab tushunchalarni tasavvur qilish orqali yaxshiroq o‘zlashtirishga imkon beradi.

Sun’iy intellekt va robototexnika asoslarini o‘qitishda pedagogik-psixologik omillar hamda neyrodidaktika tamoyillarini inobatga olgan holda virtual reallik texnologiyalar imkoniyatidan foydalanish orqali umumiy o‘rta ta’lim tizimidagi o‘quvchilarning ijodiy-texnologik fikrlash ko‘nikmalari hamda raqamli kompetensiyalarini shakllantirish imkoniyatlari aniqlandi (1-rasmga qarang).



1-rasm. Sun’iy intellekt va robototexnika asoslarini maktab o‘quvchilariga o‘qitishning pedagogik-psixologik omillari

1-rasmda keltirilgan barcha komponentlar sun’iy intellekt va robototexnika asoslarini samarali o‘rgatish uchun integratsiyalashgan yondashuvni aks ettiradi. Ushbu yondashuv o‘quvchilarning nafaqat nazariy bilimlarini, balki amaliy ko‘nikmalarini ham shakllantirishga qaratilgan bo‘lib, ularni zamonaviy texnologiyalar olamida muvaffaqiyatga erishishlariga tayyorlaydi.

Neyrodidaktika tamoyillari asosida individuallashtirilgan o‘qitish har bir o‘quvchining imkoniyatlari va ehtiyojlariga mos dars berish uchun muhimdir. Sun’iy intellekt va robototexnika asoslarini o‘rganishda sensorli aktivlashtirish usuli o‘quv jarayonida ko‘rish, eshitish, teginish kabi sezgi organlarini faol jalb etish orqali axborotni qabul qilish miyada mustahkam nerv aloqalarini hosil qiladi. Kontekstli o‘rganish usuli bilimlarni real hayotiy vaziyatlar bilan bog‘lab o‘rganishda uni eslab qolish va qo‘llash osonlashadi. Bajarish orqali o‘rganish usulida nazariy o‘rganilgan bilimlar darhol amalda sinab ko‘rish, faol harakat orqali bilim hosil qilinadi. Robototexnika darsida faqat robotni ishlash prinsipi haqida gapirish emas, balki uni yig‘ish, dasturlash va simulyatsiyalarga jalb etish orqali ularning bilimlarni yanada chuqur o‘zlashtirishiga ko‘maklashadi.

Virtual reallik (VR) texnologiyasi o‘quvchilarga sun’iy intellekt va robototexnika tizimlarini simulyatsiya qilish imkonini beradi. Masalan, robototexnika jarayonlarini o‘rgatishda VR muhitda murakkab tizimlarni boshqarishni o‘rganish mumkin. Kengaytirilgan reallik (AR) texnologiyasidan foydalanib o‘quvchilar robotlarning ishlash mexanizmini yoki sun’iy intellekt algoritmlarini vizualizatsiya qilish imkoniyatiga ega bo‘lishadi.

Raqamli kompetensiyalarni shakllantirishda pedagogik va psixologik omillarni hisobga olgan holda, o‘quv jarayoni o‘quvchilarning yosh xususiyatlariga, qiziqishlariga va o‘qitishning zamonaviy usullariga mos tarzda tashkil etiladi.

O‘quvchilarning ijodiy-texnologik fikrlash qobiliyatini samarali tarzda shakllantirishda pedagogik va psixologik omillarni hisobga olgan holda, o‘quvchilarning o‘rganishga bo‘lgan motivatsiyasi, mavzuga bo‘lgan tabiiy qiziqishi, har bir o‘quvchining shaxsiy ehtiyojlari va emotsional holati inobatga olgan holda individual yondashuv asosida o‘rgatiladi bu esa ularga kelajakda muvaffaqiyatli mutaxassislar sifatida yetishishga yordam beradi.

Dissertatsiyaning **“Sun’iy intellekt va robototexnika asoslarini maktab o‘quvchilariga o‘qitish metodikasini takomillashtirish”** deb nomlangan ikkinchi bobida sun’iy intellekt va robototexnika asoslari bo‘yicha o‘quvchining qobiliyatlarini shakllantirish bosqichlari, o‘qitish metodikasi va baholash, usullari yoritilgan.

Sun’iy intellekt va robototexnika asoslari bo‘yicha o‘quvchining qobiliyatlarini shakllantirish bosqichlari nazariy bilim va amaliy ko‘nikma olishni nazarda tutadi va uchta bosqichni o‘z ichiga oladi.

Birinchi bosqichda o‘quvchilar nazariy bilimlarni o‘zlashtiradilar. Masalan sun’iy intellektning asosiy tushunchalari (algoritmlar, mashina o‘rganish, neyron tarmoqlar va h.k.) va robototexnika elementlari haqida ma’lumot oladilar (2-rasmga qarang).

Ikkinchi bosqichda o‘quvchilar o‘rgangan nazariy bilimlarini amaliyotda

qo‘llash va mustahkamlashni amalga oshiriladi. Bu bosqichda o‘quvchilar aqlli dasturlash orqali amaliy topshiriqlarni bajaradi. Dissertatsiyada robototexnika modellarini yaratish va dasturlash, mustaqil loyiha ishlari va guruh ishlarida ishtirok etish kabi amaliy vazifalarni bajarishi ochib berilgan. Masalan Orange 3 da ma’lumotlarni yuklash, tozalash, tahlil qilish va natijalarni grafik shaklda ko‘rsatish uchun maxsus funksiyalari mavjud. Bu algoritmlarning ishlashini tushunish va natijalarni baholash uchun juda foydalidir. Shuningdek, turli xil mashinani o‘qitish algoritmlari mavjud bo‘lib, ularni klassifikatsiya, regressiya, klasterlash va boshqa masalalar uchun ishlatish mumkin.



2-rasm. Sun’iy intellekt va robototexnika asoslari bo‘yicha o‘quvchining qobiliyatlarini shakllantirish bosqichlari

Uchinchi bosqichda sun’iy intellekt va robototexnika asoslarini o‘rganishda maktab o‘quvchilarining qiziqishini orttirish maqsadida generativ sun’iy intellekt yordamida qurilmalarni ishlatish bo‘yicha tavsiyalarni olish, elektron sxemalarni to‘g‘ri ulanganligini aniqlash hamda robototexnika elementlarini ishlashi holatini tekshirish, vujudga keladigan xatoliklarni aniqlash uchun ChatGPT kabi dasturlardan foydalanib kodlarni tekshirish imkoniyati ko‘rib chiqilgan.

Tadqiqot davomida sun’iy intellekt va robototexnika asoslarini o‘qitishni metodik tizimi takomillashtirildi (3-rasmga qarang).



3-rasm. Sun'iy intellekt va robototexnika asoslarini maktab o'quvchilariga o'qitishni metodik tizimi

Maqsadli komponent yurtimizda raqamli texnologiyalarning rivojlanish tendensiyalarini inobatga olgan holda maktab o‘quvchilarga sun’iy intellekt va robototexnika asoslari bo‘yicha kompetensiyalarini shakllantirish orqali ularni kelajakdagi raqamli texnologiyalarga asoslangan kasblarga tayyorlashni ifodalaydi. Shuningdek, ushbu komponent sun’iy intellekt va robototexnika asoslarini o‘zlashtirishdan kutiladigan natijalarni o‘z ichiga oladi, bu esa ularni o‘rgatish uchun mos ta’lim darajasini aniqlashga yordam beradi.

Mazmunli komponent o‘quvchilar uchun integrativ mavzuli modullar (Orange3 dasturiy vositasi yordamda ma’lumotlarni tahlil qilish, Arduino muhitida sensorlar bilan ishlash) bilan ifodalanadi. Ushbu modullar o‘rtasida bog‘liqlikni o‘rnatish uchun ma’lumotlar bilan ishlashning barcha bosqichlarini o‘z ichiga olgan, jumladan klasterlash, tasniflash va regressiya yordamida ma’lumotlarni tahlil qilish algoritmlarini ishlatishni o‘rganiladi. Shuningdek, Arduino platformasida o‘quvchilar mikroprotsessorlar va turli sensorlar yordamida amaliy loyihalarni yaratishda dasturlash va elektronika asoslarini o‘rganish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Integrativ mavzuli modullar orqali o‘quvchilar zamonaviy texnologiyalar bilan tanishadilar, amaliy bilimlarini mustahkamlaydilar va ularni turli fanlar bo‘yicha o‘zaro bog‘lash imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Ushbu ta’lim modullari robototexnika va ma’lumotlar tahlili kabi mavzularni o‘z ichiga olgan bo‘lib, turli dasturiy vositalardan foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Tashkiliy komponent zamonaviy o‘qitish usullarini tanlash imkoniyatini beradi, shu jumladan zarur bo‘lgan o‘qitish shakllari, usullari va vositalarini o‘z ichiga oladi. Loyiha asosida o‘qitishni amalga oshirish uchun o‘quvchilar guruhlarga bo‘lingan va dasturiy vositalarning muhitlaridan foydalanib, turli amaliy dasturlarni tayyorlash vazifasi yuklatilgan. Uslubiy qo‘llanmada har bir modullar uchun dasturiy vositalardan foydalanish bo‘yicha nazariy ko‘rsatmalar tushuntirib berilgan va topshiriqlar ishlab chiqilgan.

Baholash komponenti baholash usullari (formativ baholash va yakuniy baholash), mezonlari va darajalarini o‘z ichiga oladi. Sun’iy intellekt va robototexnika asoslarini o‘rgangan o‘quvchilarni kognitiv, ijodiy-texnologik va hamkorlik-refleksiv qobiliyatlarini baholash mezonlari ishlab chiqildi.

O‘quvchilarda kognitiv bilimlarni shakllanishi o‘quvchining fikrlash, tahlil qilish, mantiqiy fikrlash va qaror qabul qilish qobiliyatlarini o‘sishini o‘z ichiga oladi.

O‘quvchilarda ijodiy-texnologik qobiliyatlarini shaklanishi zamonaviy texnologiyalardan foydalanishni o‘z ichiga oladi. Bu bilimlar o‘quvchiga turli texnik asboblar, qurilmalar va dasturiy ta’minotdan samarali foydalanish imkonini beradi.

O‘quvchilarning hamkorlik-refleksiv ko‘nikmalarini shakllanishi loyiha bo‘yicha o‘quvchilar o‘rtasidagi hamkorlik va o‘zaro fikr almashishni o‘z ichiga oladi.

Dissertatsiyaning **“Pedagogik tajriba-sinov ishlarining natijalari va ularning samaradorligi”** deb nomlangan uchinchi bobida Sun’iy intellekt va robototexnika asoslarini o‘qitish bo‘yicha so‘rovnoma natijalari tahlil qilingan, tajriba-sinovlarni o‘tkazish bosqichlarining tavsifi, tajriba-sinov natijalari va ularni statistik tahlili keltirilgan, sun’iy intellekt va robototexnika asoslarini o‘qitish usullarining samaradorligini tekshirish bo‘yicha pedagogik eksperiment ma’lumotlari tahlil qilingan.

Toshkent shahridagi 12 ta tumanda joylashgan 12 ta maktabning 10-11-sinf

o‘quvchilari, ularning ota-onalari (vasiylari), “Informatika va axborot texnologiyalari” fani o‘qituvchilari va maktab direktorlaridan Sun’iy intellekt va robototexnika asoslarini o‘qitish holati, o‘quvchilarni ushbu mavzularga qiziqishi, ota-onalarning ushbu mavzularni farzandiga o‘qitishga bo‘lgan qiziqishini o‘rganish hamda o‘qituvchilarning ushbu mavzularni o‘quvchilarga o‘qita olish bo‘yicha bilim va ko‘nikmalari borligini aniqlash maqsadida so‘rovnoma o‘tkazildi va natijalari tahlil qilindi.

So‘rovnomada 735 nafar o‘quvchi, 542 nafar ota-onalar (vasiylar), 33 nafar “Informatika va axborot texnologiyalari” fani o‘qituvchilari hamda 12 nafar maktab direktorlari ishtirok etdi. Har bir ishtirokchi uchun “Dasturlash va sun’iy intellektni o‘qitish holati” hamda “Dasturlash yoki sun’iy intellektni o‘qitishni qo‘llab-quvvatlashning zarurati va yo‘nalishi”ni aniqlash yuzasidan savollar (jami 43 ta) ishlab chiqildi.

Ota-onalarning ko‘pchiligi dasturlash va sun’iy intellekt bo‘yicha ta’lim ularning farzandlarining ijodkorligini va boshqa fanlarni o‘zlashtirish darajasini oshiradi deb ishonishadi (542 dan 285 nafari). Ko‘pchilik ota-onalar dasturlash va sun’iy intellekt bo‘yicha ta’lim farzandlarining kelajagiga foydali deb hisoblashadi.

So‘rov o‘tkazilgan maktablardagi “Informatika va axborot texnologiyalari” fani o‘qituvchilari sifatida ro‘yxatga olingan 33 nafar o‘qituvchi treninglarda ishtirok etishga tayyor ekanliklarini bildirishdi. Ulardan sun’iy intellekt va dasturiy ta’minotni o‘qitish bo‘yicha pedagogik ko‘nikmalari haqida so‘raldi. Ular, shuningdek, maktablarda metodik qo‘llab-quvvatlash zarurligini ta’kidlashdi.

O‘quvchilarning javoblari shuni ko‘rsatdiki, so‘rovnomada ishtirok etgan aksariyat o‘quvchilarning dasturlash va sun’iy intellekt bo‘yicha bilim va tushunchalari past darajada. Taxminan 25% o‘quvchilar mustaqil o‘rganganliklarini, yana 20% esa maktab darslari ularga bilim olishda yordam berganini aytishdi. O‘quvchilarning 50% yuzaki bilimga ega bo‘lib, bundan buyon o‘rganishga qiziqish bildirishgan (4-rasmga qarang).



4-rasm. O‘quvchilarning dasturlash va sun’iy intellektni o‘rganganligini aniqlash bo‘yicha so‘rovnoma javoblari

O‘qituvchilar va maktab direktorlarining sun’iy intellekt va dasturlash bo‘yicha ta’limga munosabati so‘rovnoma natijalariga asosan aksariyat o‘qituvchilar uchun dasturlash va sun’iy intellekt ta’limi istiqbollari Informatika va axborot texnologiyalari sohasida to‘plangan bo‘lib, 87% ni tashkil etadi. Sun’iy intellekt yuqori sinflarda “Informatika va axborot texnologiyalari” fanida kam

yoritilgan mavzulardan biri hisoblanadi. Faqatgina 23% o‘qituvchilar sun’iy intellekt bo‘yicha dars berish tajribasiga ega ekanliklarini bildirganlar. Shu bilan birga, 56% o‘qituvchilar dasturiy ta’minotni o‘qitishda tajribaga ega. Ushbu o‘qituvchilar odatda algoritmlar, funksiyalar, ma’lumotlar bazalari va veb-dasturlash kabi mavzularni o‘rgatishgan (23/32). E’tibor qaratilishi lozim bo‘lgan muammolar sifatida o‘qituvchilar tomonidan jihozlangan sinfxonalar yetishmasligi (12/32), ta’lim va metodik materiallarning yetarli emasligi (14/32), o‘qituvchilardan dasturlash yoki sun’iy intellekt bo‘yicha tegishli o‘quv rejasi kerakmi deb so‘ralganda, 100% respondentlar bu zaruratni bildirishdi. So‘rovnomada ishtirok etgan o‘quvchilarning ko‘pchiligi (637/735) sun’iy intellektga doir treninglarda ishtirok etish ularning kelajagiga yordam berishini ta’kidlagan (5-rasmga qarang).



5-rasm. O‘quvchilarning sun’iy intellekt bo’yicha treninglar ularning kelajagiga ta’sirini o‘rganish bo‘yicha so‘rovnoma natijalari

Umumiy o‘rta ta’lim “Informatika va axborot texnologiyalari” fani dasturida sun’iy intellekt va robototexnikaga doir mavzularga soatlar kam ajratilganligini inobatga olgan holda tajriba-sinov ishlari Toshkent shahrining 12 ta tumanida joylashgan 12 ta umumiy o‘rta ta’lim muassasasida tajriba-sinov tariqasida 10-11-sinf o‘quvchilariga Sun’iy intellekt va robototexnika asoslari yozgi va qishki ta’til davrida 3 hafta davomida o‘qitildi va o‘zlashtirish natijalari tahlil qilindi.

2-jadval.

Tajriba va nazorat guruhining natijalari

O‘quvchilarning o‘zlashtirish natijalari	**Tajriba guruhi**				**Nazorat guruhi**			
	Tajriba-sinov boshlanganda o‘quvchilarning soni	%	Tajriba-sinov yakunida o‘quvchilarning soni	%	Tajriba-sinov boshlanganda o‘quvchilarning soni	%	Tajriba-sinov yakunida o‘quvchilarning soni	%
Yuqori	10	8	41	33	11	8	11	8
O‘rta	57	46	61	50	46	33	57	42
Quyi	57	46	21	17	81	59	67	50
Jami	124	100	123	100	138	100	135	100

Tajriba-sinov boshida tajriba guruhda 124 nafar o‘quvchi ishtirok etdi. Ularning dastlabki baholash natijalariga ko‘ra, 10 nafar (8%) yuqori darajadagi, 57 nafar (46%) o‘rta darajadagi va 57 nafar (46%) past darajadagi o‘quvchi mavjud edi. Tajriba-sinov yakunida esa o‘quvchilar natijalari yaxshilanib, 41 nafar (33%) yuqori

baholarga ega bo‘ldi, bu 23% o‘sishni ko‘rsatdi. O‘rta darajali o‘quvchilar soni 61 nafarga (50%) yetib, 4% oshdi, past darajali o‘quvchilar esa 21 nafarga (17%) tushib, 29% kamayishni ko‘rsatdi (2-jadvalga qarang).

Nazorat guruhida ham 138 nafar o‘quvchi qatnashdi. Ularning boshlang‘ich baholari bo‘yicha 11 nafar (8%) yuqori darajadagi, 46 nafar (33%) o‘rta darajadagi va 81 nafar (59%) past darajadagi o‘quvchi bo‘lgan. Tajriba-sinov yakunida yuqori darajali o‘quvchilar soni 11 nafar (8%) o‘zgarishsiz qoldi, o‘rta darajali o‘quvchilar soni 57 nafarga (42%) yetib, 9% oshdi, past darajali o‘quvchilar esa 67 nafarga (50%) tushib, 9% kamayishni ko‘rsatdi (6-rasmga qarang).



6-rasm. Tajriba-sinov natijalari

Pirsonning Xi kvadrat testi va t-test orqali o‘quvchilarning natijalari tahlil qilindi. Tajriba-sinov tarzida tashkil etilgan sun’iy intellekt va robototexnika asoslarini o‘qitish o‘quvchilarning raqamli kompetensiyalarini an’anaviy o‘quv dasturiga nisbatan sezilarli darajada yaxshilaydimi degan savolni aniqlash uchun quyidagi farazlar qo‘yildi:

O‘qitish usuli (Tajriba guruhi sun’iy intellekt va robototexnika asoslari va nazorat guruhi an’anaviy) raqamli kompetensiyalarni yaxshilashga ta’sir qilmaydi.

O‘qitish usuli raqamli kompetensiyalarni yaxshilashga ta’sir qiladi.

3-jadval.

Tajriba guruhining natijalari

O‘lchovlar	Qiymat
Tajriba guruhidagi o‘quvchilar soni (n)	124
O‘rtacha qiymat (Tajriba-sinovdan oldin)	62.60
Standart og‘ish (Tajriba-sinovdan oldin)	8.98
O‘rtacha qiymat (Tajriba-sinovdan keyin)	68.59
Standart og‘ish (Tajriba-sinovdan keyin)	10.82
O‘rtacha qiymat farqi (d̄)	5.98
Standart og‘ish farqlari (s_d)	7.77
Standart xatolik (SE)	0.70
t (df=123)	8.58
ikki tomonlama p-qiymat	3.47e-14

Tajriba guruhida o‘rtacha qiymat (Tajriba-sinovdan keyin) 68,59 ga teng, bu nazorat guruhidagi o‘rtacha qiymatdan (Tajriba-sinovdan keyin) 59,67 dan yuqori.

Bu shuni anglatadiki, tajriba guruhi natijalari nazorat guruhiga qaraganda 13% yuqori.

4-jadval.

Nazorat guruhning natijalari

O‘lchovlar	Qiymat
Tajriba guruhidagi o‘quvchilar soni (n)	138
O‘rtacha qiymat (Tajriba-sinovdan oldin)	59.33
Standart og‘ish (Tajriba-sinovdan oldin)	8.97
O‘rtacha qiymat (Tajriba-sinovdan keyin)	59.67
Standart og‘ish (Tajriba-sinovdan keyin)	7.97
O‘rtacha qiymat farqi ($\bar{d}$)	5.98
Standart og‘ish farqlari (s_d)	5.55
Standart xatolik (SE)	0.47
t (df=123)	-1.89
ikki tomonlama p-qiymat	0.061

Tajriba-sinovdan oldin har ikkala guruhda ham dastlabki nazorat o‘tkazildi. Ularning boshlang‘ich bilim, ko‘nikma va kompetensiyalari bir xil edi. Tajriba-sinov yakunida esa nazorat va tajriba guruhlarning solishtirma tahlili sun’iy intellekt va robototexnika asoslarini o‘qitishning aniq afzalliklarini ko‘rsatdi. Tajriba guruh yakuniy nazoratlarda nazorat guruhidan **13%** yuqori natijalar ko‘rsatdi, bu sun’iy intellekt va robototexnika asoslarini maktab o‘quv dasturlariga kiritishning ijobiy ta’sirini belgilab berdi.

XULOSA

1. Sun’iy intellekt va robototexnika asoslarini umumiy o‘rta ta’lim maktablarida o‘quvchilarga o‘rgatishda pedagogik va psixologik omillar neyrodidaktika tamoyillari asosida belgilangan bo‘lib, bu jarayonda immersiv texnologiyalardan foydalanish orqali raqamli ko‘nikmalarni va ijodiy-texnologik fikrlash qobiliyatlarini shakllantirish imkoniyatlari aniqlandi. Natijada virtual reallik texnologiyalaridan foydalangan holda o‘quvchilarning raqamli kompetensiyalarini shakllantirishga imkoniyat yaratilgan.

2. Sun’iy intellekt va robototexnika asoslari bo‘yicha o‘quvchilarning qobiliyatlarini shakllantirish bosqichlari ijodiy-texnologik fikrlashga yo‘naltirilgan bo‘lib, Arduino platformasida aqlli qurilmalarni dasturlash, elektron sxemalarni yaratish, funksional bloklarni kodlash va generativ sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanib sinovdan o‘tkazish orqali amalga oshirish asosida takomillashtirildi. Natijada “Informatika va axborot texnologiyalari” fani o‘qituvchilari uchun zamonaviy o‘qitish texnologiyalari va vositalaridan foydalanish samaradorligi oshirilgan.

3. Sun’iy intellekt va robototexnika asoslarini o‘qitish metodikasi loyihalash asosida tashkil etilgan bo‘lib, guruhli ishlar orqali klasterlash, tasniflash va regressiya algoritmlaridan foydalanib ma’lumotlarni tahlil qilish, tabiiy tilni qayta

ishlash orqali matnlarni tushunish, sensor va aktuatorlar yordamida mikrokontrollerlarni yig‘ish hamda simulyatsiya qilish orqali avtomatlashtirilgan boshqaruv, mexanik va elektr tizimlarini birlashtirish asosida takomillashtirildi. Natijada umumiy o‘rta ta’lim maktablari o‘quvchilari “Informatika va axborot texnologiyalari” fanida o‘rgangan nazariy bilimlarini amaliyotda bajarishi uchun “Sun’iy intellekt va robototexnika asoslari” nomli uslubiy qo‘llanma ishlab chiqildi.

4. Sun’iy intellekt va robototexnika asoslarini o‘rganishda o‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarini baholash mezonlari konstruktiv fikrlashni shakllantirishga mo‘ljallangan bo‘lib, guruh loyihalari mavzulari va ularni bajarish darajasini hisobga olgan holda formativ va summativ baholash usullarini qo‘llash asosida takomillashtirildi. Natijada o‘quvchilarning kompetensiyalarini baholash imkoniyatlari kengaytirildi.

5. Tadqiqot davomida Toshkent shahridagi 12 ta tumanda joylashgan 12 ta umumiy o‘rta ta’lim maktablarida so‘rovnomalar o‘tkazildi, loyihaga asoslangan hamda bajarish orqali o‘rganish metodikasidan foydalanib o‘qitildi va natijalari baholandi. Tajriba-sinov natijalari tajriba guruh yakuniy nazoratlarda nazorat guruhidan **13%** yuqori natijalar ko‘rsatdi, bu sun’iy intellekt va robototexnika asoslarini maktab o‘quv dasturlariga kiritishning ijobiy ta’sirini belgilab berdi.

O‘tkazilgan tadqiqot natijasida quyidagi tavsiyalarni taqdim etamiz:

1. “Matematika va Informatika” fani bo‘yicha bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlovchi pedagogika Oliy ta’lim tashkilotlarining o‘quv dasturlariga sun’iy intellekt va robototexnika asoslari fanini kiritish tavsiya etiladi.

2. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida veb-frilanser yo‘nalishida ta’lim oluvchi o‘quvchilarga “Informatika va axborot texnologiyalari” fanida sun’iy intellekt va robototexnika asoslarini o‘qitish tavsiya etiladi.

3. Umumiy o‘rta ta’lim “Informatika va axborot texnologiyalari” fani o‘qituvchilarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish dasturiga sun’iy intellekt va robototexnika asoslari modulini kiritish tavsiya etiladi.

SCIENTIFIC COUNCIL AWARDING SCIENTIFIC DEGREES DSc.l3/30.12.2019.T.07.01 AT TASHKENT UNIVERSITY OF INFORMATION TECHNOLOGIES NAMED AFTER MUKHAMMAD AL-KHWARIZMI

TASHKENT UNIVERSITY OF INFORMATION TECHNOLOGIES NAMED AFTER MUKHAMMAD AL-KHWARIZMI

ABDUJALILOV JAVLONBEK ADILOVICH

IMPROVING THE METHODOLOGY FOR TEACHING THE BASICS OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE AND ROBOTICS TO SCHOOL PUPIL

13.00.02 – Theory and Methodology of Education and Training (Informatics)

DISSERTATION ABSTRACT OF THE DOCTOR OF PHILOSOPHY (PhD) ON PEDAGOGICAL SCIENCES

TOSHKENT– 2025

The theme of doctor of philosophy (PhD) on pedagogical sciences was registered at the Supreme Attestation Commission under the Ministry of Higher education, science, and innovation of the Republic of Uzbekistan under number B2024.4.PhD/Ped8573.

The dissertation has been prepared at Tashkent University of Information Technologies.

The abstract of the dissertation is posted in three languages (Uzbek, English, Russian (resume)) on the website (www.tuit.uz) and on the website of «Ziyonet» Information and educational portal (www.ziyonet.uz.)

Scientific adviser:	**Zakirova Feruza Makhmudovna** doctor of pedagogical sciences, professor
Official opponents:	**Fayziyeva Makhbubakhon Rakhimjonovna** doctor of pedagogical sciences, professor
	Shoymardonov Tuymurod Turdialiyevich doctor of philosophy (PhD) in pedagogical sciences, associate professor
Leading organization:	**Gulistan State University**

The defense of the dissertation will be held «_____» _____ 2025 at _____at the meeting of Scientific council No. DSc.l3/30.12.2019.T.07.01 at Tashkent University of Information Technologies named after Mukhammad al-Khwarizmi (Address: 100084, Tashkent city, Amir Temur street, 108. Ph.: (+99871) 238-64-43, fax: (+99871) 23865-52, e-mail: tuit@tuit.uz).

The dissertation can be reviewed at the Information Resource Centre of Tashkent University of Information Technologies named after Mukhammad al-Khwarizmi (is registered under No._____). (Address: 100084, Tashkent city, Amir Temur street, 108. Ph.: (+99871) 238-64-43, fax: (+99871) 238-65-52).

The abstract of dissertation was sent out on «_____» _____ 2025 y.
(mailing protocol No. _____ on «____» _____ 2025 y.).

M.M. Musaev
Chairman of the Scientific Council awarding scientific degrees, Doctor of technical sciences, professor

E.Sh. Nazirova
Scientific Secretary of Scientific Council awarding scientific degrees, Doctor of technical sciences, professor

Dj.B. Sultonov
Chairman of the Academic Seminar at the Scientific Council awarding scientific degrees, Doctor of technical sciences, associate professor

INTRODUCTION (abstract of PhD dissertation)

Topicality and necessity of the thesis. The rapid development of information technologies worldwide plays a crucial role in improving human life, expanding socio-economic opportunities, and enhancing educational processes. Technology, being on the path of constant progress and discovering new fields, serves as a critical tool for ensuring maximum resource efficiency. Examples of such emerging fields include artificial intelligence (AI) and robotics. Significant attention is being paid to the integration of AI and robotics into the education system by UNESCO[5] and several other educational organizations. As the 21st century is regarded as the era of technology, consistently providing students with essential knowledge, skills, and abilities related to AI and robotics is one of the most pressing issues.

Leading countries around the world are conducting various scientific studies aimed at developing a range of skills in students including problem-solving, critical thinking, and creativity by integrating topics on artificial intelligence and robotics into general secondary schools. Based on the modern trends emerging from these studies, it is considered an urgent task to implement innovative educational technologies in the general secondary education process, to assimilate and strategically adapt advanced foreign experiences, to develop skills that enable students to put their acquired knowledge into practice through teaching artificial intelligence and robotics, and to prepare professionals with digital competencies.

